

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKNAZAROVA NILUFAR TULKINOVNA

**TIJORAT BANKLARNING XALQARO VALYUTA
OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit,

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Tashkent shahar – 2024 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Beknazarova Nilufar Tulkinovna

Tijorat banklarning xalqaro valyuta operatsiyalarini takomillashtirish3

Бекназарова Нилуфар Тулкиновна

Совершенствование международных валютных операций коммерческих
банков.....31

Beknazarova Nilufar Tulkinovna

Improving the foreign exchange operations of commercial banks59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works63

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKNAZAROVA NILUFAR TULKINOVNA

**TIJORAT BANKLARNING XALQARO VALYUTA
OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit,

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Tashkent shahar – 2024 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.3.PhD/Iqt3249 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «Ziyonet» ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Absalamov Akram Tolliboyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Rajabov Sherzod Umurzoqovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


Ortiqov Oybek Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: "Poytaxt bank" AJ

Dissertatsiya himoyasi Toshkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "17" 01 kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (36 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «28» 12 kuni tarqatildi.
(2024 yil «9» 11 dagi 29 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.X. Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI AXBOROT-RESURS MARKAZI	
2024	No 20-16

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangi tendensiyalar iqtisodiyotda raqobatni kuchaytirib, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning murakkablashishiga olib keldi. Valyuta bozorida yuz berayotgan o'zgarishlar esa yangi muammolar va imkoniyatlarni keltirib chiqarmoqda. Texnologik taraqqiyot, globalizatsiya va xalqaro valyutalarning rivojlanishi bu jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlash uchun yangi sharoitlarga moslashish va zamonaviy yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu holat jaxon valyuta bozorida ham qayd etilib, 2023-yil davomida aynan valyuta derivativlar bozorining hajmi 600 trillion AQSh dollari tashkil etdi. Dunyodagi eng yirik valyuta bozorlaridan biri sifatida valyuta derivativlari soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 16,79 milliard shartnomaga yetdi bu esa rekord darajadagi yuqori ko'rsatkich hisoblanib 2023-yilga nisbatan 10,7 foizga o'sdi. Jahon amaliyoti ko'rsatkichlari asosida namoyon bo'ladiki, xalqaro valyuta bozori yildan yilga rivojlanib bormoqda va bu jarayon muntazam dolzarblik kasb etmoqda¹.

Jahonda valyuta bozori va valyuta operatsiyalari faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda valyuta bozoridagi keskin o'zgarishlar sharoitida risk menejmenti, iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida valyuta bozorida moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishi samaradorligini baholash, valyuta bozori ishtirokchilari faoliyatini diversifikatsiyalash maqsadida valyuta derivativlari jumladan, fyuchers, opsiya, forvard, svop xosilaviy instrumentlarga e'tibor qaratilgan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar valyuta bozorlarini samarali yo'lga qo'yish va investorlar faolligini oshirish mexanizmlarini shakllantirish bilan bog'liq muammolar yetarlicha o'rganilmagan. Bu, o'z navbatida, ichki valyuta bozorining samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda, «Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish, kelgusi besh yilda 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish² maqsadi qo'yilgan. Shu bilan birga, tijorat banklarining valyuta operatsiyalari samaradorligini oshirish, valyuta tavakkalchiliklarini pasaytirish uchun muddatli valyuta operatsiyalarini joriy etish kabi vazifalar ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi

¹ Tadqiqotchi tomonidan State of the Market: European Listed Derivatives in 2024

(<https://www.fia.org/fia/articles/2024-eta-volume-reports>)ning ma'lumotlari asosida tayyorlandi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoniga 1-ilova

to'g'risida" farmoni, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda 2019-yil 24-oktabrdagi PQ-5041-sonli "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarining xalqaro valyuta operatsiyalari rivojlantirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlarning, xususan Adler G. va Mano R.C., Allayannis G., Ihrig J. va Weston J.P., Bordo M.D., Humpage O. va Schwartz, Fatum R. va Hutchison M., Haudi H., Wijoyo H. va Cahyono Y., Dedola L., Georgiadis G., Gräb J. va Mehl A., Sitompul S., Ichsan R.N. va Nasution L., Ali B.J. va Oudat M.S. va boshqa bir qator olimlarning ilmiy asarlarida o'rganilgan.³

O'zbekistonlik tadqiqotchi olimlar tomonidan tijorat banklarining valyuta operatsiyalari samaradorligi, mamlakatimizdagi valyuta siyosati, milliy valyuta barqarorligini ta'minlashni N.X. Jumayev, D.A. Raxmonov, Sh.Z. Abdullayeva, A.T. Absalamov, O.S. Do'stmuxamedov, U.O' Azizov va T.M. Qoraliyev, D.A. Toshpulatov va boshqa olimlar⁴ tomonidan nazariy va uslubiy jihatlarini hamda rivojlantirish yo'nalishlari bilvosita va bevosita tadqiq qilingan. Ammo, hozirgi kungacha mamlakatimiz iqtisodchi olimlar tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xalqaro valyuta operatsiyalari, xususan valyuta operatsiyalaridagi risklarni boshqarish, valyuta kursidagi o'zgarishlarning banklar

³ Adler, G., & Mano, R. C. (2021). The cost of foreign exchange intervention: Concepts and measurement. *Journal of Macroeconomics*, 67, 103045. Allayannis, G., Ihrig, J., & Weston, J. P. (2001). Exchange-rate hedging: Financial versus operational strategies. *American Economic Review*, 91(2), 391-395. Bordo, M.D., Humpage, O., & Schwartz, A.J. (2012). Epilogue: foreign-exchange-market operations in the twenty-first century (No. w17984). National Bureau of Economic Research. Fatum, R., & Hutchison, M. (2006). Effectiveness of official daily foreign exchange market intervention operations in Japan. *Journal of International Money and Finance*, 25(2), 199-219. Haudi, H., Wijoyo, H., & Cahyono, Y. (2020). Analysis of most influential factors to attract foreign direct investment. *Journal of Critical Reviews*, 7(13). Dedola, L., Georgiadis, G., Gräb, J., & Mehl, A. (2021). Does a big bazooka matter? Quantitative easing policies and exchange rates. *Journal of Monetary Economics*, 117, 489-506. Sitompul, S., Ichsan, R.N., & Nasution, L. (2021). The Influence of Exchange Rate, Inflation, For the Results of the Development Assets of Islamic Banks. Ali, B.J., & Oudat, M.S. (2020). Financial risk and the financial performance in listed commercial and investment banks in Bahrain bourse. *International Journal of Innovation, Creativity and Change*, 13(12), 160-180.

⁴ N. Jumayev. Why digital economy is needed and what provides, 2020.; Raxmonov D.A. va boshq. Moliyaviy globalashuv sharoitida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi: nazariya va amaliyot. Monografiya. T.: "IQTISODIYOT", 2018 y., 49-60 b.; Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2000.-240 b.; Absalamov A.T. Transmission mexanizm valyuta kanali savdo balansi o'rtasidagi bog'liqlik // Muhandislik va Iqtisodiyot ilmiy jurnali – Toshkent, №2(2), 2024 yil. 129-141 b., Do'stmuxamedov O.S (2022) Aholi Moliyaviy savdaxonligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-T.Toshkent-2022, 9 b., Azizov U.O', Qoraliyev T.M. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2016; Toshpulatov D.A. "Tijorat banklarida risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish", Avtoreferat .Toshkent, 2022.

valyuta operatsiyalariga ta'sirini baholash mustaqil dissertatsion tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsion tadqiqot mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'zbekiston bank-moliya tizimini yanada rivojlantirishning kontseptual yo'nalishlari va istiqbollari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarning xalqaro valyuta operatsiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini ilmiy nazariy asoslarini tadqiq etish;
banklar valyuta operatsiyalarining evolyutsiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

mamlakatimizda banklar faoliyatida valyuta operatsiyalarining tendensiyalarini tahlil qilish;

Garant bank misolida valyuta operatsiyalarining amaldagi holati tahlil qilish;
tijorat banklarining valyuta operatsiyalariga ta'sir etuvchi omillarni empirik baholash;

tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etishga doir ilmiy-nazariy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tijorat banklarning xalqaro valyuta operatsiyalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklarning xalqaro valyuta operatsiyalari takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik va ekonometrik baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalqaro to'lovlarning tezligini oshirish, hamda tijorat banklarida valyuta operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida SWIFT tizimidagi operatsiyalar hajmini oshirish orqali tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirish asoslangan;

FinTech kompaniyalari va banklar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali tijorat banklarining xalqaro valyuta operatsiyalarni samaradorligini yanada oshirish taklif etilgan;

banklar tomonidan derevativlar bozorida matching usulidan foydalangan holda valyuta fyuchers muddatli valyuta instrumentlarini keng qo'llash va bu orqali banklarni valyuta operatsiyalari hajmini oshirish asoslangan;

tijorat banklarining xorijiy valyutadagi operatsiyalardan oladigan daromadlariga ta'sir etuvchi omillar matritsasini shakllantirish orqali xorijiy valyutadagi kreditlar foizini manzilli boshqarish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

raqamli ekotizim va xalqaro valyuta operatsiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni

mustahkamlash orqali operatsiyalar hajmini oshirish taklifi etilgan;

valyuta risklarini kamaytirish va operatsiyalar xavfsizligini oshirish uchun banklarning forward, svop va opsiyonlar kabi vositalardan kengroq foydalanishini taklif qilingan;

banklarning operatsiyalarni tezkorlik bilan boshqarish va valyuta kurslarini bashorat qilish imkoniyatlarini oshirish maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalarini xalqaro valyuta operatsiyalariga joriy qilish asoslangan;

AJ Garant bank valyuta operatsiyalaridan oladigan daromadlariga tanlangan ko'rsatkichlatning ta'sirini ifodalovchi strukturaviy vektorli avtoregressiya modelini hamda ularning impuls reaksiyasi shakllantirilgan;

milliy valyuta devalvatsiyasining bir foizga oshishi bir chorak kechikish bilan bankning xorijiy valyutadagi operatsiyalardan daromadlarini 3,61 foizga oshirish ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni qo'llanilgan yondashuv va usullar, ular doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olinganligi, banklarning valyuta operatsiyalariga qaratilgan nazariy va amaliy muammolarga bag'ishlangan tadqiqot mualliflarining ilmiy qarashlarini o'rganish, xorijiy davlatlarning ushbu yo'nalishga oid ilg'or tajribasini tadqiq etish, O'zbekiston Respublikasining valyuta siyosatiga oid tegishli normativ-huquqiy xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi, "Garant bank" AJ statistik ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalarni respublikamiz tijorat banklarida valyuta operatsiyalarni rivojlantirish, hamda valyuta operatsiyalardagi tavakkalchiliklarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda fundamental asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni mamlakatimizda tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini takomillashtirishda, uning bank tizimida samaradorligini oshirishda, hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklarning xalqaro valyuta operatsiyalarini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xalqaro to'lovlarning tezligini oshirish, hamda tijorat banklarida valyuta operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida SWIFT tizimidagi operatsiyalar hajmini oshirish orqali tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini qisqartirishga doir taklifi Garant bank AJ faoliyatiga joriy etilgan (Garant bank AJning 2024-yil 6-iyundagi OUT-2528/03-2024/E-son ma'lumotnomasi). Natijada, tijorat banklarida ochiq valyuta pozitsiyalari belgilangan limitlardan oshgan taqdirda, SWIFT tizimidagi operatsiyalar hajmini oshirish orqali ochiq valyuta pozitsiyalarini o'rnatilgan limitlargacha qisqartiruvchi balanslashtiruvchi operatsiyalarni samarali amalga oshirish, shu bilan birga xalqaro

to'lovlarni tezlashtirish va valyuta operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlashga erishiladi.

FinTech kompaniyalari va banklar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali tijorat banklarining xalqaro valyuta operatsiyalarni samaradorligini yanada oshirishga doir taklifi "Garant bank" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("Garant bank" AJning 2024-yil 6-iyundagi OUT-2528/03-2024/E-son ma'lumotnomasi). Natijada, raqamli ekotizim va xalqaro valyuta operatsiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash orqali operatsiyalar hajmini oshirishga etishiladi.

banklar tomonidan derevativlar bozorida matching usulidan foydalangan holda valyuta fyuchers muddatli valyuta instrumentlarini keng qo'llash va bu orqali banklarni valyuta operatsiyalari hajmini oshirish doir taklifi "Garant bank" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("Garant bank" AJning 2024-yil 6-iyundagi OUT-2528/03-2024/E-son ma'lumotnomasi). Natijada, derevativlar bozorida matching usulidan foydalangan holda savdolar asosiy aktivi AQSH dollarining so'mga nisbatan kursi bo'lgan valyuta fyuchers operatsiyalari hajmi 2023-yilda 40 mlrd so'mga etgan.

tijorat banklarining xorijiy valyutadagi operatsiyalardan oladigan daromadlariga ta'sir etuvchi omillar matritsasini shakllantirish orqali xorijiy valyutadagi kreditlar foizini manzilli boshqarishga doir taklifi "Garant bank" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("Garant bank" AJning 2024 yil 6 iyundagi OUT-2528/03-2024/E-son ma'lumotnomasi). Natijada, chet el valyutasidagi qisqa muddatli bank kreditlari bo'yicha foiz stavkasining bir foizga oshishi bir kvartallik kechikish bilan bankning xorijiy valyutadagi operatsiyalardan daromadlarini 3,92 foizga oshirish ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi va aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning asosiy ilmiy-amaliy natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tarkibi 126 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy

yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini ilmiy nazariy asoslari, banklar valyuta operatsiyalarining evolyutsiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, hamda tijorat banklari valyuta operatsiyalarining huquqiy asoslari tadqiq etilgan va ular yuzasidan nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Bugungi kundagi xalqaro valyuta tizimi tamoyillariga ko'ra har qanday milliy pul birligi valyuta hisoblanadi va jahon puli vazifasini bajara oladi, lekin har qanday sotuvchi o'z tovarlariga ekvivalent sifatida o'z mamlakatida amalda bo'lgan milliy valyutani olishni istaydi. Shuning uchun ham har doim valyutada milliy va jahon xo'jaligi o'rtasidagi o'zaro aloqa va bog'liqlik namoyon bo'ladi.

Globalashuv jarayonida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar kuchayib, turli davlatlar pul birliklarini bir-biriga almashtirish zarurati paydo bo'lmoqda, bu esa valyuta bozorlarining rivojlanishiga olib kelmoqda. Jahon iqtisodiyotida savdo-sotiq, kreditlash, investitsiyalar va boshqa moliyaviy operatsiyalarning ko'payishi natijasida valyuta munosabatlari tushunchasi shakllangan bo'lib, bu hozirgi kunda xalqaro moliyaviy tizimning asosiy tarkibiy qismiga aylangan.

Valyuta munosabatlari faqat iqtisodiy sohadagina emas, balki xalqaro ijtimoiy va madaniy aloqalarda ham muhim rol o'ynamoqda, masalan, turizm rivojlanishi, ta'lim almashinuvi va gumanitar yordam kabi sohalarda. Keng ma'noda, valyuta munosabatlarining obyekt sifatida nafaqat turli mamlakatlarning pul birliklari, balki valyuta derivativlari ham qaraladi, bu esa moliyaviy bozorlarning murakkablashuvini va global iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari valyuta operatsiyalari, valyuta risklari va ularni boshqarish, valyuta operatsiyalari turlari borasida olimlar tomonidan bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Haudi, Wijoyo va Cahyono maqolalarida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (FDI) jalb qilishda eng muhim omillarni tahlil qilishadi. Mualliflar turli mamlakatlar va iqtisodiy sharoitlarda FDI oqimini jalb qilishga yordam beruvchi omillarni aniqlash uchun keng ko'lamli iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganishadi. Ushbu tadqiqotda, jumladan, iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma, soliq siyosati, siyosiy barqarorlik, ishchi kuchining malakasi kabi ko'rsatkichlarning FDI darajasiga ta'siri o'rganiladi. Mualliflar FDI ni rag'batlantiruvchi eng kuchli omillar orasida barqaror iqtisodiy muhit va rivojlangan infratuzilma tizimini alohida ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiy barqarorlik va rivojlangan infratuzilma xorijiy investorlar uchun asosiy omillar sifatida ajralib turadi, chunki bu omillar investitsiyalar uchun xavfsiz va istiqbolli muhit yaratadi. Bundan tashqari, siyosiy barqarorlik va qulay soliq siyosati ham FDI ni jalb qilishda muhim rol o'ynashi aniqlangan. Mualliflar, shuningdek, ishchi kuchining malakasi yuqori bo'lgan mamlakatlar investitsiyalar uchun ko'proq e'tiborni tortishini aniqlashadi, chunki malakali kadrlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Natijada, FDI

oqimini oshirish uchun mamlakatlar o‘z iqtisodiy va siyosiy muhitlarini barqaror va raqobatbardosh qilishlari zarurligini tavsiya etishadi.⁵

1-jadval

“Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining xarakteristiklari: konseptual yondashuvlar”⁶

Mualliflar			
N.X.Jumayev (O‘zbekiston)	J.M.Keyin (Angliya)	L. Krasavina (Rossiya)	Dj.Saks va A.Uorner (AQSh)
Valyuta munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish va valyuta nazoratini samarali qo‘llashni asoslab bergan.	Valyuta operatsiyalari va xarid quvvati paritetining tebranishi valyuta kursi tebranishidan sezilarli darajada farq qilsa, bu holat tovarlarning ikki guruhi (halqaro savdo aylanmasi obyekt bo‘lgan va bo‘lmagan) nisbiy narxlarda o‘zgarish kuzatilgani yoki kuzatilishini anglatadi.	«Valyuta bozorida xorijiy valyutalarni sotib olish-sotish operatsiyalari hajmining oshishi tijorat banklarida ochiq valyuta pozitsiyasi riskini kuchayishiga olib keldi» ⁷	«Mamlakatda valyuta operatsiyalarini maqsadi, tashqi savdo va valyuta islohotlarining turli bosqichlardagi muvofiqlik va mantiqiylikni aniqlashdan iborat» ⁸

Adler va Mano maqolalarida xorijiy valyuta intervensiyalarining xarajatlari va ularni o‘lchash usullari haqida batafsil tushuncha beriladi. Mualliflar valyuta kursini barqarorlashtirish yoki boshqa iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun markaziy banklar tomonidan amalga oshiriladigan intervensiyalarning bevosita va bilvosita xarajatlarini tahlil qilishadi. Ular intervensiyalar natijasida yuzaga keladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy xarajatlar bilan birga, ushbu harakatlarning bozordagi boshqa iqtisodiy o‘zgaruvchilarga va investorlarga qanday ta‘sir ko‘rsatishini ham ko‘rib chiqishadi. Ushbu maqola, shuningdek, intervensiyalarning samaradorligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlar va o‘lchov usullarini taklif qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, valyuta intervensiyalari qisqa muddatda kursni barqarorlashtirishga yordam berishi mumkin, ammo ularning xarajatlari uzoq muddatli iqtisodiy natijalar bilan o‘lchanganida, ba‘zan ortiqcha bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. Xususan, intervensiyalar moliyaviy rezervlarni qisqartirishi va ortiqcha valyuta zahiralari saqlashni talab qilishi mumkin, bu esa iqtisodiy o‘sishga ta‘sir qilishi ehtimolini oshiradi. Mualliflar, shuningdek, doimiy intervensiyalar investorlarda valyuta kurslari bilan bog‘liq noaniqlik va o‘zgaruvchanlik kutilmalarini kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatib, bu intervensiyalarni faqat aniq va samarali sharoitlarda amalga oshirish zarurligini ta‘kidlaydi.⁹

⁵ Haudi, H., Wijoyo, H., & Cahyono, Y. (2020). Analysis of most influential factors to attract foreign direct investment. *Journal of Critical Reviews*, 7(13).

⁶ Ma‘lumotlar asosida mustaqil tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

⁷ <https://www.bfa.uz/files/Konferensiyalar/Konferensiya-2023-04-12.pdf>

⁸ Sachs J., Warner A. *Economic Reform amd the Process of Global Integration* // N. Y., 1995- P.15-16.

⁹ Adler, G., & Mano, R. C. (2021). The cost of foreign exchange intervention: Concepts and measurement. *Journal of Macroeconomics*, 67, 103045.

Dong, Yin, Liu, Hu, Li va Liu (2020) tadqiqotlarida Xitoyda internet-moliyalashtirishning tijorat banklari samaradorligiga ta'sirini o'rganadilar. Mualliflar internet-moliyalashtirish, ayniqsa raqamli to'lovlar va onlayn kreditlash kabi yangi texnologiyalar va xizmatlarning rivojlanishi Xitoy banklari uchun qanday o'zgarishlarga olib kelganini tahlil qilishadi. Internet-moliyalashtirishning raqobatni oshirish orqali banklarning daromad modeliga va samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkinligi haqida bahs yuritiladi. Maqolada ayniqsa internet-moliyalashtirishning tijorat banklarining an'anaviy faoliyatiga va ular uchun yangi biznes modellarini shakllantirish zaruriyatiga olib kelgan o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, internet-moliyalashtirishning rivojlanishi Xitoy tijorat banklari samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon raqobatni kuchaytirgan bo'lib, natijada banklar o'z xizmatlarini raqamlashtirish va innovatsion xizmatlarni taklif etishga majbur bo'lishgan. Mualliflar internet-moliyalashtirish an'anaviy bank xizmatlari foydasini pasaytirishi, lekin raqamli texnologiyalarni joriy qilgan banklar uchun yangi daromad manbalarini ochishi mumkinligini aniqlashgan. Shunday qilib, internet-moliyalashtirish banklar uchun ham qiyinchilik, ham imkoniyatlar yaratadi, bu esa ulardan raqamli bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatini talab qiladi.¹⁰


Dissertatsiya ishining **“Mamlakatimizda tijorat banklari valyuta operatsiyalarining amaliy holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda banklar faoliyatida valyuta operatsiyalarining tendensiyalari va “Garant bank” AJ misolida valyuta operatsiyalarining amaldagi holati tahlili qilingan. Shuningdek ilmiy ishning ushbu bobida tijorat banklarining valyuta operatsiyalari va daromadlariga ta'sir etuvchi omillarning empirik tahlili olib borilgan.

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari amalga oshirish joyiga qarab ikki turga bo'linadi. Bular valyuta birjasidagi operatsiyalar va birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalardir. Tijorat banklarining valyuta birjasidagi operatsiyalari asosan yuridik shaxslar hisoblangan mijozlar nomlaridan xorijiy valyutani sotish va sotib olish operatsiyalari hisoblanadi. Shu bilan birga 2021-yil fevral oyidan boshlab, tijorat banklari o'zlarining ehtiyojlari uchun ham valyuta birdasidan xorijiy valyutani sotish va sotib olish operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin.

Tijorat banklarining valyuta birjasidan tashqaridagi valyuta operatsiyalari bu bank va mijozlari o'rtasidagi valyuta operatsiyalari hisoblanib, bu bizda valyuta ayriboshlash shaxobchalaridagi spot operatsiyalari kiradi.


Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston valyuta birjasida tijorat banklari tomonidan sotilgan xorijiy valyuta miqdori 2017-yilda 3,37 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,5 barobarga oshib 8,60 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan valyuta birjasida chet el valyutasini sotib olish hajmi 2017-yilda 6,22 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 16,69 mlrd so'mgacha ko'tarilgan.

¹⁰ Dong, J., Yin, L., Liu, X., Hu, M., Li, X., & Liu, L. (2020). Impact of internet finance on the performance of commercial banks in China. *International Review of Financial Analysis*, 72, 101579.



1-rasm. O‘zbekiston Respublika valyuta birjasida chet el valyutalari savdolari hajmi¹¹

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimizdagi valyuta birjada xorijiy valyuta tanqisligi oshib bormoqda. Xususan, 2017-yilda valyuta birjasidagi salbiy saldo 2,85 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 8,09 mlrd AQSh dollarigacha ko‘tarilgan va bu salbiy saldo milliy valyuta almashinuv kursining oshishiga bosimni kuchaytirmoqda.




2-rasm. O‘zbekiston Respublika valyuta birjasida chet el valyutalari savdolari hajmi (foizda)¹²

¹¹ O‘zbekiston Respublika Markaziy bankning yillik statistik byulletenlari asosida muallif ishlanmasi.

¹² O‘zbekiston Respublika Markaziy bankning yillik statistik byulletenlari asosida muallif ishlanmasi.

Valyuta birjasida xorijiy valyutaga bo‘lgan talab va takliflarni foizlarda tahlil qiladigan bo‘lsak, unda tijorat banklari tomonidan valyuta birjasida sotib olingan chet el valyutasi salmog‘i umumiy savdolar hajmining o‘rtacha 60 foizidan ortig‘ini tashkil etmoqda. Xususan, 2017-yilda valyuta birjasidagi umumiy aylanma 9,59 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, undan tijorat banklari tomonidan valyuta birjasida sotib olingan chet el valyutasi salmog‘i umumiy savdolar hajmining 64,9 foizni tashkil etgan. 2023-yilda esa valyuta birjasidagi umumiy aylanma tahlil qilinayotgan davrda 3 barobarga yaqin oshib, 25,29 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan va unda tijorat banklari tomonidan valyuta birjasida sotib olingan chet el valyutasi salmog‘i umumiy savdolar hajmining 66,0 foiz bo‘lgan. Tahlil qilingan davrda faqatgina 2021-yilda valyuta birjasidagi umumiy aylanma 12,82 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan holda tijorat banklari tomonidan valyuta birjasida sotib olingan chet el valyutasi salmog‘i umumiy savdolar hajmining 76,2 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich tahlil qilinayotgan davrda eng yuqori ko‘rsatkich hisoblangan.




3-rasm. O‘zbekiston Respublika valyuta birjasida chet el valyutalari savdolari hajmining o‘zgarish tendensiyasi¹³

Tijorat banklari tomonidan valyuta birjasidagi savdolarining o‘zgarish tendensiyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda 2018-yilda 2017-yilga qaraganda valyuta oldi-sotdi operatsiyalari o‘zgarishi katta bo‘lgan. Xususan, 2018-yilda 2017-yilga nisbatan tijorat banklari tomonidan chet el valyutasi sotib olish hajmi 53,3 foizga oshgan bo‘lsa, chet el valyutasini sotish hajmining o‘zgarishi esa 89,1 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga 2022-yilda 2021-yilga nisbatan tijorat banklari tijorat banklari tomonidan chet el valyutasini sotish hajmining o‘zgarishi 110,1 foizni tashkil etgan va bu tahlil qilinayotgan davrda eng katta o‘zgarish qayd etgan.

¹³ O‘zbekiston Respublika Markaziy bankning yillik statistik byulletenlari asosida muallif ishlanmasi.

Tijorat banklarining valyuta birjasidagi savdolarini tahlil qilish natijasidan xulosa qilishimiz mumkinki, valyuta birjasida oxirgi yetti yilda chet el valyutasiga talab uning taklifidan doim yuqori bo‘lib kelgan. Bunga 2017-yilda valyuta siyosatining liberallashtirilishi, hamda valyuta konvertasiyasidagi sun’iy cheklovlarning olib tashlanishi sabab bo‘lgan. Shu bilan birga mamlakatimizda valyuta birjasida doim xorijiy valyuta tanqisligi kuzatiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, oxirgi yillarda valyuta birjasida chet el valyutasining tanqisligi doim oshib bormoqda va 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 8,09 mlrd AQSh dollariga yetgan.




4-rasm. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olingan va sotilgan chet el valyutasi hajmi (mln AQSh dollari)¹⁴

Tijorat banklarining birjadan tashqari valyuta bozorida valyuta operatsiyalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, valyutia birjasidagi holatdan keskin farq qiladi. Bu farq asosan chet el valyutasiga bo‘lgan talab bilan uning taklifi o‘rtasidagi farqda ko‘riladi. Xususan, tijorat banklari tomonidan birjadan tashqari valyuta bozorida jismoniy shaxslardan sotib olingan xorijiy valyutalar miqdori 2017-yilda 862,4 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, ularga sotilgan valyutalari miqdori esa 185,0 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu ikki holat farqi 677,4 mln AQSh dollarini tashkil etgan va valyuta birjasidagi manfiy saldoni birjadan tashqari valyuta bozoridagi musbat saldo qisman bo‘lsada yumshatmoqda. Shuningdek, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan birjadan tashqari valyuta bozorida jismoniy shaxslardan sotib olingan xorijiy valyutalar miqdori 2023-yilga kelib 12340,1 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, bank tomonidan jismoniy shaxslarga sotilgan valyutalari miqdori esa 9140,7 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu ikki holat farqi 3199,4 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

¹⁴ O‘zbekiston Respublika Markaziy bankning yillik statistik byulletenlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, birjadan tashqari valyuta bozoridagi savdolar hajmi o‘rtasidagi farq eng past bo‘lgan ko‘rsatkich 2020-yilga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, tijorat banklari tomonidan birjadan tashqari valyuta bozorida sotib olgan xorijiy valyutalar miqdori 2020-yilda 4607,8 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, bank tomonidan sotilgan valyutalari miqdori esa 4126,4 mln AQSh dollarini tashkil etgan holda farqi 481,7 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Bunga asosiy sabab, 2020-yilda boshlangan pandemiya va uning ta‘sirida xalqaro ishchi kuchi migrasiyasidagi muammolar bo‘lgan.


2017-yilda mamlakatimizda valyuta siyosatining erkinlashtirilishi, valyuta birjasida va birjadan tashqari valyuta bozorlaridaxorijiy valyuta konvertasiyasidagi chektovlarning olib tashlanishi, bir tomondan tadbirkorlarga keng yo‘l ochib bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan parallel valyuta bozorining iqtisodiyotga salbiy ta‘siri ancha kamaytirildi. Shu bilan birga tijorat banklarining valyuta operatsiyalari ko‘lamini va turlarini, hamda valyuta birliklaridagi operatsiyalarini oshirishga olib keldi. Xususan, 2019-yilga qadan birjadan tashqari valyuta bozorida jismoniy shaxslardan yetti xil valyuta, ya‘ni AQSh dollari, Angliya Funt sterlingi, Yevro, Shveysariya franki, Yaponiya ienasi, Rossiya rubli hamda Qozog‘iston tengesi harid qilingan bo‘lsa, ammo banklar tomonidan jismoniy shaxslarga faqat AQSh dollari sotilgan. Ya‘ni qolgan valyutalarda faqat sotib olish operatsiyasi amalga oshirilgan. 2019-yildan birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalarda ham valyuta birliklari soni Turk lirasi hisobiga oshirildi, ham barcha valyutalarda jismoniy shaxslarga sotish amaliyoti ham yo‘lga qo‘yildi. Bu o‘z navbatida birjadan tashqari valyuta bozorining to‘laqonli faoliyat olib borishiga yo‘l ochib berdi.



5-rasm. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olingan va sotilgan AQSh dollari hajmi (millionda)¹⁵

¹⁵ O‘zbekiston Respublika Markaziy bankning yillik statistik byulletenlari asosida muallif ishlanmasi.

Ammo shunga qaramasdan, birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklarining valyuta operatsiyalarining katta qismi AQSh dollarida amalga oshirilmoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2017-yilda birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan 847,3 mln AQSh dollari sotib olingan bo‘lsa, ularga sotilgan AQSh dollari miqdori 185,0 mln tashqil etmoqda. Ko‘rinib turibdiki, 2017 yilda birjadan tashqari valyuta bozorida AQSh dollarining salmog‘i 98 foizga yaqin bo‘lgan. Keyingi yillarda bu tendensiya qisman o‘zgargan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilda birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan 12267,4 mln AQSh dollari sotib olingan bo‘lsa, ularga 9059,0 mln AQSh dollari sotilgan va umumiy farq 3208,4 mln AQSh dollarini tashkil qilgan. Huddi yuqoridagi vaziyat kabi, 2020 yilda birjadan tashqari valyuta bozorida AQSh dollari taklifi ko‘rilayotgan davrda eng past ko‘rsatkichni qayd etgan.



6-rasm. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olingan va sotilgan yevro hajmi (millionda)¹⁶


Mamlakatimizda birjadan tashqari valyuta bozorida valyuta birliklariga ko‘ra operatsiyalar hajmi yevroda amalga oshirilmoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2017-yilda birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan 8,9 mln yevro sotib olingan bo‘lsa, ularga yevro umuman sotilmagan va bu holat 2018-yilda ham shunday bo‘lgan. 2019-yildan bu tendensiya keskin o‘zgargan. Xususan, 2019-yilda birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olgan yevro miqdori 2017-yilga nisbatan besh barobarga yaqin oshib, 39,9 mln yevroni tashkil etgan bo‘lsa, ularga 6,1 mln yevro sotilgan va umumiy farq 33,9 mln yevroni tashkil qilgan. 2023-yilga kelib bu tendensiya keskin o‘zgargan va bu birjadan tashqari valyuta bozorida yevroga nisbatan taklif va talabdagi farqda ko‘rilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklari tomonidan jismoniy

¹⁶ O‘zbekiston Respublika Markaziy bankning yillik statistik byulletenlari asosida muallif ishlanmasi.

shaxslardan 44,7 mln yevro sotib olingan bo'lsa, ularga 52,9 mln yevro sotilgan va umumiy farq manfiy bo'lib -8,2 mln yevroni tashkil qilgan. Huddi yuqoridagi vaziyat kabi, 2020-yilda birjadan tashqari valyuta bozorida yevro taklifi ko'rilayotgan davrda eng past ko'rsatkichni qayd etgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, garchi 2017-yilda birjadan tashqari valyuta bozorida Rossiya rublida savdolar amalga oshirilgan bo'lsada, ammo 2022-yilda bu tendensiyasi keskin o'zgargan. Xususan, 2017-yilda birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan 268,2 mln Rossiya rubli sotib olingan bo'lsa, 2021-yilda esa bu ko'rsatkich 286,4 mln Rossiya rublini tashkil etgan. Ammo 2022-yildan birjadan tashqari valyuta bozorida Rossiya rublidagi savdolar keskin oshgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan umumiy hisobda 5531,9 mln Rossiya rubli sotib olingan bo'lsa, o'sha yilda ularga 3718,9 mln Rossiya rubli sotilgan. Ya'ni 2022-yildagi birjadan tashqari valyuta bozorida Rossiya rublidagi aylanma 12 barobarga oshgan. Bunga asosiy sabab sifatida 2022-yilda boshlangan xalqaro siyosiy va xarbiy ziddiyatlar natijasida Rossiyada AQSh dollariga nisbatan cheklovlarning o'rnatilishini keltirishimiz mumkin. 2023-yilda xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan bizning davlatimizga nisbatan ogohlantirishlardan keyin Rossiya uchun sanksiyalardan qochadigan davlat sifatida faoliyatimizni to'xtatganmiz. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olingan Rossiya rubli hajmi 2022-yilga nisbatan 3,5 barobarga kamayib, 1660,5 mln Rossiya rublini tashkil etgan bo'lsa, ularga sotilgan Rossiya rubli hajmi ham ikki barobarga kamayib 1707,4 mln Rossiya rublini tashkil qilgan.



7-rasm. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan sotib olingan va sotilgan Rossiya rubli hajmi (millionda)¹⁷

¹⁷ O'zbekiston Respublika Markaziy bankning yillik statistik byulletenlari asosida muallif ishlanmasi.

Mamlakatimizda birjadan tashqari valyuta bozorida tijorat banklarining valyuta operatsiyalariga xulosa qiladigan bo'lsak, unda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslardan asosan xorijiy valyuta sotib olingan. Jumladan, valyuta birjasidagi operatsiyalarda xorijiy valyuta taklifiga nisbatan unga bo'lgan talab 8,09 mlrd AQSh dollariga ortiq bo'lgan bo'lsa, birjadan tashqari valyuta bozorida esa, valyuta birjasidagi ortiqcha talabning 3,20 mlrd AQSh dollari qoplanmoqda.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali Garant bankining valyuta operatsiyalari daromadligini ko'ramiz.

2-jadval

“Garant banki” AJning valyuta operatsiyalaridan olgan daromadlarining miqdori va darajasi¹⁸


Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar, mlrd so'm.	55,7	63,1	71,3	28,8	91,5
Valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlarning foizsiz daromadlar hajmidagi salmog'i, %	3,4	2,3	8,1	13,6	11,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019–2023-yillarda Garant bankining valyuta operatsiyalaridan olgan daromadlari miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2019-yilda bankning valyuta operatsiyalaridan olgan daromadlari 55,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 91,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. Shuningdek, bankning valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlarining foizsiz daromadlaridagi ulushi ham oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilda bankning valyuta operatsiyalaridan olgan daromadlarining umumiy foizsiz daromadlaridagi ulushi 3,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib esa foizsiz daromadlarining 11,1 foizi valyuta operatsiyalaridan kelgan. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha qo'yilayotgan dadil qadamlar xalqaro valyuta munosabatlariga mos kelishi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu omillarni aniq belgilab olish va tartibga solish nafaqat davlat darajasida, balki tadbirkorlik subyektlari va oddiy fuqarolar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.


Bu esa, Garant bankining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

¹⁸ Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot. www.nbu.uz (Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki).



8-rasm. “Garant banki” AJning valyutagi foreks operatsiyalari hajmi (mln AQSh dollarida)¹⁹

2021–2024-yillarda “Garant banki” AJning valyutagi foreks operatsiyalarida Forex treyderlari (valyuta treyderlari) valyuta narxlarining o‘zgarishini kutadilar va valyutaga talabning o‘zgarishidan foyda olish uchun valyuta bozorida valyuta juftliklarida savdo pozitsiyalarini egallaydilar.



“Garant bank” AJning valyuta operatsiyalaridagi daromadlari dinamikasi²⁰

¹⁹ “Garant banki” AJ ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

²⁰ “Garant banki” AJ ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Quyidagi rasm ma'lumotlarini asosida tahlil qilganda, “Garant bank” AJ valyuta operatsiyalaridan oladigan daromadining milliy valyuta kursi o'zgarishi bilan korrelyatsiyasi 0,30 foizni tashkil qilishi orqali biz milliy valyuta devalvasiyasi kuzatilsa, bankning valyuta operatsiyalaridan oladigan daromadining ham oshishiga olib keladi.

Tanlangan “Garant bank” AJ misolida valyuta operatsiyalaridan olayotgan daromadlariga ta'sir etuvchi omillarning empirik tahlilini olib boramiz. Bunda “Garant bank” AJning xorijiy valyutadagi operatsiyalardan daromadlarining real choraklik o'zgarishiga (LnY) a'sir yetuvshi omillar sifatida milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan devalvasiya sur'atining choraklik o'zgarishi (LnX_1), inflyatsiyaning choraklik darajasi (LnX_2), hamda tijorat banklarining xorijiy valyutadagi kreditlarining o'rtasha yillik foiz stavkasi real choraklik qiymati (LnX_3) tanlab olingan.

Tanlangan ko'rsatkichlar choraklik qiymatda olingan va ular 2017-yil 1-yanvar holatiga real qiymatga o'tkazilgan. Shuningdek, tanlangan ko'rsatkichlarning qiymatlarini bir-biriga yaqinlashtirish uchun ular natural logarifmlangan.



